

**PROFAYLING METODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYTLARI SHAXSLARARO****MUNOSABATLARDA TUTGAN O'RNI****SH.B.Mustafayev**

Buxoro viloyati qo'riqlash boshqarmasi psixologlari kapitan

**D.O'. O'ktamov**

katta leytenant

**A.A. Ne'matov**

leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14719486>

*Annotatsiya.* Shaxslararo munosabatlarda profillash xizmatlarining rolining psixologik jihatlarini o'rganish eng dolzarb masalalardan biridir. Biz bilamizki, profillahtirish xizmatlari, ayniqsa, odamning muvaffaqiyati uning malakali muloqot qilish qobiliyatiga bog'liq bo'lganda talab katta bo'ladi. Ha, yoshi va shaxslararo munosabatlarda xizmat ko'rsatish tajribasi bilan hamma qisman fiziognomist psixologga aylanadi

**Kalit so'zlar:** psixologiya, shaxslararo munosabatlar, profayling.

**РОЛЬ СПЕЦИФИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК МЕТОДА ПРОФИЛИРОВАНИЯ В  
МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ**

*Аннотация.* Изучение психологических аспектов роли профайлинговых сервисов в межличностных отношениях является одним из наиболее актуальных вопросов. Мы знаем, что услуги профилирования пользуются большим спросом, особенно когда успех человека зависит от его умения грамотно общаться. Да, с возрастом и опытом межличностной службы каждый частично психолог-физиономист.

**Ключевые слова:** психология, межличностные отношения, профилирование.

**THE ROLE OF THE SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE PROFILING METHOD  
IN INTERPERSONAL RELATIONSHIPS**

*Abstract.* One of the most pressing issues is the study of the psychological aspects of the role of profiling services in interpersonal relationships. We know that profiling services are especially in demand when a person's success depends on his or her ability to communicate competently. Yes, with the age and experience of profiling services in interpersonal relationships, everyone becomes a partial physiognomist psychologist.

**Keywords:** psychology, interpersonal relationships, profiling.

**KIRISH**

Zamonaviy psixologiyada inson o'zining faoliyati davomida bilim, ko'nikma va malakalaridan tashqari, intellektual, emotsiional va irodaviy resurslarini ham safarbar etadi hamda

uni boshqaradi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, Profayling xizmatini shaxslararo munosabatlarda tutgan o'mini psixologik jihatlarini tadqiq qilish dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi. Bilamizki, profayling xizmati xam insonning muvaffaqiyati uning vakolatli aloqa o'rnatish qobiliyatiga bog'liq bo'lsa, bu bilimlar ayniqsa talabga ega. Ha, profayling xizmatini shaxslararo munosabatlarda tutgan o'rnini yoshi va tajribasi bilan har bir inson qisman fiziognomist psixologga aylanadi. Uning hamkasbining yuzi unda ong osti xavfini yoki aksincha, ishonchni uyg'otishi mumkin. Bu juda ko'p xatolardan so'ng paydo bo'ladigan sezgi qarashlari va bu tajriba uchun qancha yuqori narx to'lashi kerak! Profayling xizmati kimga kerak? Profayling hamma uchun zarur! Psixolog mijoz bilan muloqotning birinchi soniyalarida nimalarga e'tibor berish kerak ( so`zlashish tezligi, tashqi ko'rinishi, holati, tafsilotlari, soddaligi, amaliyligi va boshqalar). Bir vaqtning o'zida hamma narsaga e'tibor qilishning iloji yo'qligi aniq, mijoz nimani eshitishni xohlasa bosiqlik bilan aytishi kerak. Axborot haddan tashqari ko'p bo'lgan asrda odamlar takliflarning to'liq ro'yxatini tinglashga tayyor emaslar, shuning uchun ham, qanday qilib odamni birinchi jumla bilan, keyinroq esa aniq va noaniq ravishda bitimga olib boradigan yo`lni bilish kerak? Profayling xizmatidan Savdo bilan shug'ullanadiganlar, sud organida, umuman xamma soxada foydalansa xam ma'qul.

### ASOSIY QISM

**Profayling** - bu shaxsning noverbal xatti-xarakatlari va o'ziga xos xususiyatlarini baholash orqali uning harakatlarini haqqoniy baholash, hisoblanadi. Profayling yoki profayl metodi - shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning hulqidagi o'zgarishlarni tashqi ifoda va hattiharakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan xolda oldindan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir. Ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Profayling usuli profilaktika inspektorlariga fuqarolar bilan muloqotga kirishgan shaxs haqida ma'lumot olish, havfni oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, profayling usulini profilaktika inspektorlari faoliyatida joriy etilishi kasbiy kuzatuvchanlik, atrof-muhitni tahlil qilish, kishilarining hulqi, shubha uyg'otuvchi alomatlarini aniqlash, xizmat vaqtida fuqarolar bilan yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda samarali hisoblanadi. Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati doirasida ikki jahada profayling ishlari olib borilmoqda. Birinchisi, kriminal profayling doirasida.

Profilaktika inspektorining profayling metodini o'rganishiga qo'yiladigan talablar:

- vizual psixologik diagnostika asosida shaxsni baxolash texnologiyasini egallash;
- xukukbuzarlarning psixologik ta'siriga karshi ta'sir choralarini qo'llash texnikasini egallash;
- favkulodda vaziyatlarda xissiy xolatlarni boshkarish qobiliyatini shakllantira olish;
- ommanning psixologik ta'siriga karshi ta'sir kursata olish kobiliyatini shakllantirish;

- xizmat faoliyatida turli shaxslar bilan psixologik aloka urnatish usullari va texnikasiga ega bulish;

- xulk tipologiyasi va ogzaki portret buyicha xukukbuzar va kidi- ruvda bulgan jinoyatchilarni aniklash kunikmasini x.osil kilish;

- terroristik va ekstremistik yunalishdagi xatarning oldini olish vazifalarini bajarishda tezkor muxim ma'lumotlarni olish malakasini kullash kobiliyatiga ega bulish. Profayling usullari kullaniladigan holatlar. SHaxslar orasidagi mulokotda berilayotgan ma'lumotning ishonchligini baxolash. Kursatishicha, xar bir shaxs suzlashish davomida olinaetgan ma'lumotga ishongisi keladi, lekin xar kim xam, uni aldaetganlarida paykagisi kelmaydi. Extiroslar dunesida yashashni xoxlamaydiganlarga profayling usulini bilishlari, raxbar-ishchi, surishtiruvchi-gumon kilinuvchi yeki boshka xoxlaganlar bilan alokada uzatilaetgan ma'lumotni ob'ektiv baxolash imkonini beradi. Profilaktika inspektori tomonidan narkotik moddalarni is- te'mol kilinganligining belgilari amaliy kumak berishi mumkin. Bunday iste'molning bilvosita belgilari universal emas, ammo xar xolda giexvand shaxsni kuchada omma orasidan topishda yerdam beradi.

Agar fakat tashki alomatlarga karaladigan bulsa, ular katta tajri- baga ega giex, vndlarga tugri kelmaydi:

- yeruglik kay darajada bulishidan kat'i nazar, korachiklarning notabiyy torayishi (-tir" narkotiklar - geroin, kokain iste'mol kilinganida) yeki keigayishi (—vgil" narkotiklar iste'molida);

- parishonlik bilan karash;

- iskirt kurinish, sochlarning kurukligi; kul panjasining shish- ganligi; kupincha tishlarning koraygan, uvalangan, -singan" (tunkacha- lar kurinishida)ligi;

- gavdaning bukikligi;

- nutkning tushunarsiz, —uzik'ligi;

- ogizdan alkogol xidi kelmagan xolda besunakay va sekin xara- katlanish;

- ma'murlarga (xokimiyat vakillariga) uchrashishdan kochishga uri- nish;

- ob-xavo va vaziyat kanday bulishidan kat'i nazar, doimo uzun yengli kiyim kiyish (ojiz diagnostik belgi).

Muloqot - bu doimo o'yin. Suxbatdoshning qiziquvchanligini va emotsiyal holatini baholash, uning uz aytganida turish, aniq ma'lumotlardan qachon foydalanish zarurligi tug'risida aniq tushuncha beradi, bunday vaziyatdan foydalanib, aniq xarakatni amalga oshirishni qo'ldan chikarish mumkin emas. Odamlar to'planadigan joylarda (aeroport, savdo markazlari, tungi klublar va hokazo) niyatni o'zgarishini aniqlash. Agar do'kon yoki tungi klublarda janjal chiqqanida, qurqmasdan urushga kirgan xodim, yaxshi xodim xisoblanmaydi. Malakali profilaktika inspektori olomon orasidan niyati buzuqlarni aniqlashni va mojaroning asosiy manbaini bartaraf etishni bilishi lozim. Jinoyatchini psixologik profilini tuzish.

Bu usul barcha profayling yunalishining bosh mezoni xisoblanadi. Uning vazifasi, profilaktika inspektori tomonidan ma'muriy xududdagi xuquqbuzar shaxs yoki profilaktik xisobdagi shaxslarning profili to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lish xisoblanadi, bu esa profilaktik ishlarning samarasini oshirishga xizmat qiladi. Profilaktika inspektori doimiy ravishda profilaktik suxbatga taklif etilgan fuqaroni noverbal kuzatish orqali idrok etib boradi. Profaylerning o'rghanish ob'ekti sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- mimika;
- jestlar;
- xatti-harakatlarning o`ziga hos xususiyatlari;
- nutqning psixolingvistik qonuniyatları;
- verbal muloqotning paralingvistik alomatlari va boshqalar.

Xar qanday axborot faqat belgilar, aniqrog`i, belgilar tizimi orqali beriladi.

Psixologiya fani ijtimoiy fanlar tizimida nisbatan navqiron, lekin juda tez rivojlanib borayotgan istiqbolli fanlardan biridir. Bu fanning rivojlanishiga avvalo ijtimoiy hayot va amaliyotning o'sib borayotgan ehtiyojlari, ya'ni jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy hodisalarining sotsial-psixologik jihatdan o'rjanib, tushuntirib berish zarurati turki bo'lmoqda. Profayling metodi hozirgi kunda psixologiya sohasining yangi kelayotgan qiziqarli hamda amaliy ahamiyatga ega bo`lgan tarmog`idan biridir. Uni muammo sifatida nafaqat ijtimoiy psixologiya fani, shuningdek falsafa, pedagogika, mantiq, huquqiy va etika fanlari tizimida ham o'rGANILADI.

Profayling metodi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Profayling metodining xususiyatlaridan biri sifatida profilaktik hisobdagi shaxslar hatti-harakatini kuzatish, ularga savollar berish, ekspress psixodiagnostika qilish, ularning hatti-harakatlaridagi normadan og`ishlarni qayd etish hamda ularni o'rGANISHGA qaratilgan boshqa harakatlar kiritiladi.
2. Profaylingning mantiqiy sxemasida g`ayriqonuniy aralashish harakatlarini taylorlash chog`ida havf tug`dirishi mumkin bo`lgan shaxslarning harakatlari modelini tuzish; bunday harakatlarni taylorlash belgilarini aniqlash; xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan tiplar (profillar) - bunday harakatlarning ehtimol utilgan ijrochilari tasnifini yaratish; kuzatuv hududidagi har bir shaxsning maqomini rejalashtirilayotgan g`ayriqonuniy aralashuv harakatiga aloqador bo`lish mumkinligi nuqtai nazaridan aniqlash; har bir shaxsni muayyan tipga (yoki profilga) kiritish, ya'ni profillash.
3. Profayling metodini amalga oshirish uchun vizual psixodiagnostika, diagnostik ekspress-suhbat, neyrolingvistik dasturlash metodlari, tergov faoliyati sohasida ko`p yillik tajribani egallagan yuqori darajadagi tayorgarlikka ega mutaxassislar jalb etiladi.

**XULOSA**

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, profayling metodi shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o'zgarishlarni tashqi qiyofasi va xatti-harakatlari asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullarni qo'llab avvaldan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir. Har qanday muloqot doimo ob'ekt bilan sub'ektning bir-birga moslashish jarayonini qamrab oladi. Inson hulqi va uning hatti-harakatlarini oldindan bashorat etish uchun alohida qobiliyatga ega bo`lish yoki ko`plab kitoblar o`qish shart emas, buning uchun inson, uning hatti-harakatlarini o`rganishga qiziqish bo`lsa bo`ldi..

**REFERENCES**

1. Volinskiy-Basmanov YU.M, Volinskiy, V.YU. Kameneva, M.E. Eriashvili N.D., Aminov I.I. Psichologicheskoe obespechenie predotvrašenija nezakonnnyx aktov nezakonnogo vmeshatelstva v deyatelnost grajdanskoy aviatsii / YU.M. Volynskiy- Basmanov i dr. M.: YUniti-Data Zakon i pravo, 2011.– S. 86.
2. Statniy V.M. Texnologiya profaylinga i ee realizatsiya v obespechenii bezopasnosti na transporte V.M. Statnyu SPb, 2010.– S. 149
3. Rogatix L.F. Borba s kontrabandoy narkoticheskix sredstv, psixotropnyx veshestv i silno deystvuyushix veshestv. SPb, 2003. S. 35-36.
4. Qodirov M.S. Profayling metodining rivojlanish tarixi. "XXI asrda ilmfan tarakkiètining rivojlanish istikbollari va ular da innovatsiyalarning tutgan urni" mavzusidagi Respublika 1 - ilmiy onlayn konferensiyasi. Toshkent. 2018. 126 b.
5. Aseev V. G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniya lichnosti. M., 1976. 246 s. 4. Canter D., Heritage R.A Multivariate Model of Sexual Offence Behavior // The Journal of Forensic Psychiatry. 1989. Vol. 1.
6. Ressler R., Burgess A., Douglas J. Criminal Profiling Research on Homicide. Unpublished Research Report. N. Y., 1982.
7. Lagovskiy A.YU., Skrytnikov A. I., Telejnikova V. N., Begunova L. A. Sostavlenie psichologicheskogo portreta prestupnika: Ucheb.-metod. posobie. M., 2000. 7. Feofanov O. A. Agressiya lji. M.: Politizdat, 1987. 318 s.
8. Fernxem A., Xeyven P. Lichnost i sotsialnoe povedenie. M.: Piter, 2001. 360 s. 9. Filonov L. B. Psichologicheskie sposoby vyjavleniya skryvaemogo obstoyatelstva. M.: Izd-vo MGU, 1979. 99 s.
9. Ponomarenko, V.V. Prakticheskaya xarakterologiya s elementami prognozirovaniya i upravleniya povedeniem (metodika «sem radikalov»). – Rostov-n/D.: Feniks. 2006. – 252 s